



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
A. Safarov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
Xolmurodova Sarvinoz	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
G'afforova Dildora Ergashevna	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
Yusupova Umida Zayniddin qizi	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
Z. N. Urunova, M. Jaborova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
Sattorova Shirinoy San'atovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements.....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor.....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni.....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction 205 A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati 208 Majitov Turg'unali Anvar o'g'li
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari 214 Ismoilova Muattar Ilyosovna
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari 219 Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish 222 Murodova Sayyora Qanoatovna
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari 226 Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari 230 Abdunabiyeva Kamola Mansurovna
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili 236 Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 240 Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish 245 Raximov Zokir Toshmirovich
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari 249 Temirov Shoirbek Raimjonovich
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish 253 Kimsanova Rahnamo Solijonovna
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish 257 Muratov Muzaffar Shermamatovich
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari 261 Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari 264 Oblayeva Lobar Erdonovna
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations 268 Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari 272 Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi 276 Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools 279 S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration 282 Shahlo Obidova
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish 286 Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 290 Turakulova Feruza Mamadoli qizi



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA PRODUKTIV O'QISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

Xurramova Sojida Abdunazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Shabbazova Dilfuza Ro'zikulovna

Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili
kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Produktiv o'qishning mohiyati, uning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish hamda matnни chuqur anglash jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, o'qish jarayonida samarali pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va didaktik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarda ongli, tez, ravon va ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning o'quv faolligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini kuchaytirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimida produktiv o'qish malakasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: produktiv o'qish, boshlang'ich ta'lim, o'qish malakasi, ongli o'qish, ifodali o'qish, ravon o'qish, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, didaktik yondashuv, nutq rivoji, o'quv faolligi.

Abstract: The theoretical and practical foundations of developing productive reading skills in primary school pupils are highlighted. The essence of productive reading, its role in developing pupils' thinking, fostering independent reasoning and ensuring deep comprehension of texts are analyzed. The possibilities of applying effective pedagogical technologies, interactive methods and didactic approaches in the reading process are also examined. Particular attention is paid to increasing pupils' learning activity, developing speech culture and strengthening interest in reading through the formation of conscious, fluent and expressive reading skills. The findings of the research contribute to improving the effectiveness of developing productive reading skills within the primary education system.

Key words: productive reading, primary education, reading skills, conscious reading, expressive reading, reading fluency, independent thinking, pedagogical technologies, interactive methods, didactic approach, speech development, learning activity.

Аннотация: Освещаются теоретические и практические основы формирования навыков продуктивного чтения у учащихся начальных классов. Анализируются сущность продуктивного чтения, его роль в развитии мышления учащихся, формировании самостоятельного мышления и глубоком понимании текста. Рассматриваются возможности использования эффективных педагогических технологий, интерактивных методов и дидактических подходов в процессе чтения. Научно обоснованы вопросы повышения учебной активности учащихся, формирования культуры речи и усиления интереса к чтению посредством развития навыков осознанного, беглого и выразительного чтения. Результаты исследования способствуют повышению эффективности развития навыков продуктивного чтения в системе начального образования.

Ключевые слова: продуктивное чтение, начальное образование, навык чтения, осознанное чтение, выразительное чтение, беглое чтение, самостоятельное мышление, педагогические технологии, интерактивные методы, дидактический подход, развитие речи, учебная активность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi bilim olish jarayoniga mustahkam poydevor yaratishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, o'qish malakalarini shakllantirish ushbu bosqichning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki o'qish – bu nafaqat matnни tovushlab ifodalash, balki uning mazmunini anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va o'z fikrini shakllantirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinflar o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.



Produktiv o'qish tushunchasi o'quvchining matn bilan faol ishlashi, ya'ni o'qilgan materialni tushunishi, tahlil qilishi, unga munosabat bildira olishi va o'z bilimlari bilan boyitib, yangi g'oyalar ishlab chiqishi bilan tavsiflanadi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinfda aynan shu ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi.

Hozirgi globallashuv sharoitida axborot hajmining keskin ortib borishi o'quvchilardan faqat o'qish emas, balki o'qilgan ma'lumotni tez va samarali o'zlashtirishni talab etmoqda. Shu bois an'anaviy o'qish metodlari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurati ortib bormoqda. Bu metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish va o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qish jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, tafakkurini kengaytirish va o'quv faoliyatini faollashtirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Mamlakatimizda o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro baholash dasturlari orqali rivojlantirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "O'quvchilarga kitob mutolaasi jarayonida "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida badiiy asarlarni tanlash va sinchiklab o'qish malakasini hosil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, o'quvchilarning mustaqil fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon etish malakasini oshirish maqsadida ular o'qigan kitoblari bo'yicha "Notiq o'quvchi" hamda insholar tanlovlarini o'tkazish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini "Jajji akademik" to'garaklariga jalb etish hamda ularga mutolaa sirlari va kitobxonlik madaniyati bo'yicha tushunchalar berib borish" o'quvchilarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan.

Bu esa boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida produktiv o'qish orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish mazmunini yoritib berish, produktiv o'qish orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning didaktik modelini ishlab chiqish, boshlang'ich sinf o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning produktiv o'qish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish murakkab, ko'p bosqichli pedagogik jarayon bo'lib, u o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Produktiv o'qish – bu o'quvchining matnni nafaqat o'qib chiqishi, balki uning mazmunini anglab yetishi, muhim g'oyalarni ajrata olishi, tahlil qilishi, baholashi va o'z fikrini mustaqil ravishda ifoda etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bois ushbu ko'nikmani shakllantirish boshlang'ich ta'lim jarayonining markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, produktiv o'qish malakasining tarkibiy qismlarini aniqlab olish muhimdir. Ilmiy manbalarga ko'ra, bu malaka bir nechta asosiy komponentlardan iborat: texnik o'qish (to'g'ri, tez va ravon o'qish), ongli o'qish (matn mazmunini tushunish), ifodali o'qish (intonatsiya va pauzalarni to'g'ri qo'llash), hamda reflektiv o'qish (o'qilgan materialga nisbatan munosabat bildirish). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchisida o'qish tezligi va tushunish darajasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, o'qish texnikasi yetarli darajada rivojlanmagan o'quvchi matn mazmunini chuqur anglashda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli o'qituvchi dars jarayonida bu komponentlarning barchasini uyg'un ravishda rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Produktiv o'qishni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Xususan, interfaol metodlar – "Aqliy hujum", "INSERT", "Klaster", "Bumerang", "Sinkveyn" kabi usullar o'quvchilarni matn bilan faol ishlashga undaydi. Masalan, "INSERT" metodi orqali o'quvchilar matnni o'qish jarayonida belgilash tizimi asosida o'z tushunchalarini ifodalaydi: yangi ma'lumotni ajratadi, tushunmagan joylarini aniqlaydi va mavjud bilimlari bilan solishtiradi. Bu esa o'qish jarayonini passiv qabul qilishdan faol o'zlashtirish darajasiga olib chiqadi. Shuningdek, "Klaster" metodi matndagi asosiy g'oya va tushunchalarni tizimlashtirishga yordam beradi, bu esa mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qishni rivojlantirishda matn tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Tanlanadigan matnlar o'quvchilarning yoshiga mos, mazmunan qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga ega va til jihatidan sodda bo'lishi zarur. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar qiziqishiga mos keladigan matnlar bilan ishlaganda ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi 1,5–2 barobar oshadi. Bundan tashqari, turli janrdagi (ertak, hikoya, she'r, ilmiy-ommabop matnlar) materiallardan foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularning nutq boyligini oshiradi.

Produktiv o'qish malakasini shakllantirishda o'qituvchining roli ham alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi va motivator sifatida faoliyat olib borishi kerak. U o'quvchilarga savollar berish, muammoli vaziyatlar yaratish, bahs-munozaralar tashkil etish orqali ularning fikrlash faoliya-

tini rag'batlantiradi. Masalan, matn o'qib bo'lingandan so'ng "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Agar sen shu vaziyatda bo'lsang, nima qilarding?" kabi savollar berish o'quvchilarni chuqurroq fikrlashga undaydi. Bu esa reflektiv o'qish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, baholash jarayoni ham produktiv o'qish malakasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy baholash tizimidan tashqari, formativ (jarayon davomida baholash) usullarini qo'llash samarali natija beradi. O'quvchilarning o'qish tezligi, tushunish darajasi, savollarga javob berish qobiliyati, matnni qayta hikoya qilish va o'z fikrini bildirish ko'nikmalari muntazam ravishda tahlil qilib borilishi lozim. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, muntazam tahlil va individual yondashuv qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning o'qish samaradorligi 25–30 % ga oshgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham produktiv o'qishni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron darsliklar, audio matnlar, multimedia vositalari o'quvchilarning eshitish va ko'rish orqali qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, audio matnlarni tinglash orqali o'quvchilar to'g'ri talaffuz va intonatsiyani o'rganadi, video materiallar esa matn mazmunini yanada aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Bu esa kompleks o'qish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, til sohasi ta'lim-tarbiya bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi, chunki u bilim olish va bilim berishning muhim quolidir. Bunda til haqida bilim berish, o'zlashtirilgan bilimlar asosida nutqiy ko'nikmani tarkib toptirish, hosil bo'lgan ko'nikmani malakaga aylantirish muhim bosqichlardir. Nutqiy ko'nikmaning asosini xotiradagi so'z zaxirasi tashkil qiladi. Bolalarda nutqiy material 1 yoshdan 4–5 yoshgacha bo'lgan davrda xotirasidagi so'z, jumla yoki tayyor matnlar asosida to'planib boradi. Professor R. Tolipovanning fikricha, "Bu material muayyan obraz yoki vaziyat bilan bog'liq ravishda bola nutqida avtomatik namoyon bo'ladi".

Ona tili ta'limida tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish kabi nutqiy faoliyat turlari bo'yicha o'quvchilarda nutqiy ko'nikma hosil qilish maqsadi orqali tegishli mashqlarni og'zaki va yozma shaklda o'tkazish nazarda tutiladi. Bunday mashqlar amaliyot bilan bog'liq materiallar asosida olib borilishi zarur. Amalda sof grammatik mashqlarga nisbatan nutqiy mashqlarga ko'proq e'tibor qaratish, ya'ni bolalarga fikrini ravon, izchil, aniq, tushunarli va xatosiz ifodalash yo'l-yo'riqlarini o'rgatish orqali mavjud ko'nikmalar malakaga aylanishiga erishilishi belgilangan. Ona tilidan o'rganiladigan bilim va hosil qilinadigan malakalar o'quvchilarda nutq va nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili predmeti amaliy o'quv predmeti bo'lganligi tufayli vaziyatli nutq tuzish malakalarini rivojlantirishni taqozo qiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish ta'limi o'zining o'rganish obyektiga ega bo'lib, o'quvchilarga tegishli bilim va ma'naviy-axloqiy tarbiya berish, shuningdek, muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida bir-birini to'ldiradi. Ona tili va o'qish darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantiradi, fikrlash doirasi va savodxonligini kengaytiradi hamda adabiy til me'yorlariga muvofiq nutqni shakllantiradi.

O'qish darslarida, asosan, o'quvchilarning og'zaki nutqi ustida ishlanadi. Shunga ko'ra, o'rganiladigan o'quv materiallari – badiiy asarlar o'quvchilarga til me'yorlariga muvofiq keladigan leksik-uslubiy, morfologik-uslubiy va sintaktik-uslubiy qurilmalar namunasini beradi. O'quvchilar og'zaki qayta hikoyalashda ulardan aynan, ba'zan esa ijodiy nusxa ko'chiradilar, fikrlashga, o'qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga harakat qiladilar.

Ona tili darslarida esa o'rganilgan matnlarning lisoniy tahlillari amalga oshiriladi. Shu jarayonda matn fonetik, leksik, so'zning morfemik tarkibiga ko'ra, morfologik va sintaktik jihatdan o'rganiladi. O'quvchi tahlil jarayonida tilning ijtimoiy vazifa bajarishini elementar darajada ilmiy anglay boshlaydi. Shunday ekan, o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi sifatida didaktik jarayonga mas'uliyat bilan yondashishi, o'quv materiallari ustida ishlashning zamonaviy, o'quvchilarni o'ynab turib o'ylashga, o'ylab turib mustaqil fikr yuritishga undovchi metod, usul va vositalarni tanlay bilishi, ularni darsda maqsadga muvofiq qo'llay olishi lozim. Bu esa o'quvchilarning til qoidalarini egallash, tasviriy-ifodaviy vositalar orqali fikrini ifodalash yo'llarini o'rganish, turli tayanch tushunchalardan ijodiy foydalanish kabi yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda tilning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati ortib borishi ona tilini o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, grammatik hodisalarni tahlil qilish jarayonida mulohaza yuritishi, mustaqil fikrlarini asoslovchi dalillarni keltira olishi, umumlashma xulosa chiqara olishlarini ta'minlovchi metodik ta'minotga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Shu bois bugungi kunda nutqiy malakalar deb yuritilayotgan nuqtai nazarlar o'tmish ajdodlarimizning badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, ularda nutq va notiqlikning talablari, to'g'ri va o'rinli so'zlashni olqishlash, o'ylab, so'ng mushohada qilish orqali fikr aytishning ahamiyati o'z ifodasini topgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirishda leksik, fonetik, morfologik, sintaktik kabi til birliklarining o'zaro bog'liqligiga amal qilgan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi zarur:

- gapni o'rganishda uning tarkibidagi leksik birliklarning ma'nosini aniqlash;
- so'z ma'nosini izohlashda uning fonetik tarkibini tahlil qilish;
- fonetik tarkib tahlilini adabiy-orfoepik talaffuz bilan bog'lash;
- talaffuz va imloning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish va h.k.

Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan "o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilgani, ... bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi" prinsiplariga boshlang'ich ta'limdan boshlab amal qilinishiga, bunda har bir o'quvchi uchun individual yoki har bir guruh uchun mavzuga doir topshiriqlar, didaktik materiallar tayyorlashni hamda muntazam qo'llashni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlangan jihatlar bevosita yozma nutq rivojiga qaratilgan ilg'or yondashuvlarga ehtiyoj uyg'otadi. "Ona tili" darsliklaridagi mashq materiallari va topshiriqlariga differensial yondashish nazarda tutilishi, ya'ni turli darajada o'zlashtiradigan o'quvchilarga mustaqil bajarishlari uchun qobiliyatlari darajasida shartli belgilar bilan ko'rsatilgan mashqlar kiritilishi zarur.

Tadqiqot davomida olib borgan izlanishlarimizda tilning murakkab hodisa ekanligi, uni yod olish yo'li bilan o'zlashtirib bo'lmashligini ko'rsatdi. Shu bois til hodisalarini tushunish orqali o'zlashtirishga erishish zarur degan xulosaga kelindi. Demak, ona tili ta'limi va boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish o'qituvchidan chuqur nazariy bilim, yuqori pedagogik tayyorgarlik va mahoratni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning nafaqat o'qish texnikasini egallashini, balki matn mazmunini chuqur anglash, uni tahlil qilish, baholash va o'z fikrini mustaqil ifodalash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, produktiv o'qish malakasi rivojlangan o'quvchilar keyingi ta'lim bosqichlarida yuqori natijalarga erishadi, chunki ular axborotni tez o'zlashtirish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Mazkur tadqiqot doirasida produktiv o'qishning asosiy komponentlari – texnik, ongli, ifodali va reflektiv o'qish ko'nikmalarining o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ayniqsa, o'qish tezligi va matnni tushunish darajasi o'rtasidagi bevosita aloqadorlik o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois o'qituvchi o'qish darslarini rejalashtirishda har bir komponentni bosqichma-bosqich va uyg'un tarzda rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Shuningdek, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash hamda bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita ekanligi aniqlandi. "INSERT", "Klaster", "Aqliy hujum" kabi metodlar o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirib, ularning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Bunday yondashuvlar o'qish jarayonini passiv qabul qilishdan faol o'zlashtirish bosqichiga olib chiqadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, mazmunan boy va qiziqarli matnlar tanlash produktiv o'qish malakasini shakllantirishda muhim omillardan biridir. O'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan o'quv materiallari ularning motivatsiyasini oshirib, o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Bu esa o'qish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Multimedia vositalari orqali o'quvchilar matnni turli kanallar orqali qabul qiladi, bu esa ularning tushunish darajasini oshiradi va o'qish malakasini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, formativ baholash tizimini qo'llash orqali o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish va o'z vaqtida pedagogik yordam ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish tizimli yondashuvni, ilmiy asoslangan metodlarni va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda nafaqat o'qish, balki mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va o'z fikrini erkin ifoda etish kompetensiyalari shakllanadi. Bu esa ularning shaxs sifatida rivojlanishiga va kelajakdagi ta'lim faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qarorlari va farmonlari.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020-yil.
3. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021-yil.
4. Q. Yo'ldoshev. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018-yil.
5. N. Egamberdiyeva. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019-yil.
6. M. Ochilov. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2017-yil.
7. Yuldasheva Sh. Interfaol diktant – savodxonlikni baholashning elektron tizimi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2019-yil. – № 1. – B. 35–36.
8. Yo'ldoshev N. Mustaqil ta'lim va tafakkur // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2006-yil. – № 10. – B. 10–11.
9. Najimova A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutq o'stirish // Til va adabiyot ta'limining dolzarb muammolari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: TDP, 2013-yil. – 124-b.
10. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2006-yil. – 216 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.